

## **Oliy ta'limda KREAM strategiyasi yordamida darslarni tashkil etishning prinsiplari va usullari**

*Nilufar Fayzullaqulovna Mamatqulova,  
p.f.f.d (PhD), dotsent  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oliy ta'limda samarali ta'lim jarayonini tashkil etishda KREAM strategiyasining (Ijodiylik – Creative, Tahliliy tafakkur – Reflective, Samaradorlik – Effective, Faollik – Active, Motivatsiya – Motivation) o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi va yoritib beradi. Hususan, didaktik prinsiplari tushunchasining paydo bo'lishidan to 21-asr ta'lim ko'nikmalarigacha muhokama qilinadi. Mazkur maqolada talabalar ijodkorligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undash va ichki motivatsiya orqali ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada strategiyaning asosiy tamoyillari – ijodiy yondashuv, tahliliy (reflektiv) fikrlash, samaradorlik, faol ishtirok va motivatsiyaning uyg'un integratsiyasi – ta'lim sifati va samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi amaliy misollar bilan ko'rsatiladi. Shuningdek, unda KREAM asosida ta'lim jarayonini tashkil etish usullari, interaktiv metodlardan foydalanish hamda talabalar mustaqil va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, faol o'rganish orqali darslarni qanday qilib “talaba markazda” yondashuviga aylantirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Muallif tomonidan didaktik prinsiplar, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy til o'rganish metodikalari chuqur tahlil qilinib, KREAM strategiyasining zamonaviy ta'limdagi dolzarbligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** KREAM (Creative, Reflective, Effective, Active, Motivation) strategiyasi, prinsiplar, usullar, kreativlik, reflektivlik, faol o'rganish.

## **Принципы и методы организации учебных занятий в высшем образовании с использованием стратегии KREAM**

*Нилуфар Файзуллакуловна Маматкулова,  
(PhD), доцент  
Узбекский государственный университет мировых языков*

**Аннотация:** Данная статья анализирует и освещает роль и значение стратегии KREAM (Креативность – Creative, Рефлексивное мышление – Reflective, Эффективность – Effective, Активность – Active, Мотивация – Motivation) в организации эффективного образовательного процесса в системе высшего образования. В частности, обсуждается эволюция понятия дидактических принципов – от их возникновения до навыков образования XXI века. В статье рассматриваются возможности развития творческого потенциала студентов, стимулирования их самостоятельного мышления, побуждения к активному участию в учебном процессе, а также поддержки через внутреннюю мотивацию. На практических примерах показано, как ключевые принципы стратегии – творческий подход, рефлексивное мышление, эффективность, активное участие и интеграция мотивации – влияют на качество и результативность образования. Также предлагаются рекомендации по организации учебного процесса на основе KREAM-стратегии: использование интерактивных методов, развитие у студентов навыков самостоятельной и коллективной работы, а также превращение занятий в «студенто-центрированный» процесс через активное обучение. Автором глубоко проанализированы дидактические принципы, педагогические подходы и современные методы преподавания языков, обоснована актуальность стратегии KREAM в современном образовании.

**Ключевые слова:** стратегия KREAM (Creative, Reflective, Effective, Active, Motivation), принципы, методы, креативность, рефлексия, активное обучение.

## Principles and Methods of Organizing Lessons in Higher Education Using the CREAM Strategy

*Nilufar Fayzullakulovna Mamatkulova,  
PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor,  
Uzbekistan State World Language University*

**Annotation:** This article analyzes and highlights the role and significance of the CREAM strategy (Creativity, Reflective, Effective, Active and Motivation) in organizing an effective educational process in higher education. In particular, it discusses the evolution of the concept of didactic principles – from their origin to 21st-century education skills. The article explores opportunities for developing students' creative potential, encouraging independent thinking, fostering active participation in the learning process, and supporting them through intrinsic motivation. Practical examples are provided to demonstrate how the core principles of the CREAM strategy – creative approach, reflective thinking, effectiveness, active involvement, and the integration of motivation – impact the quality and efficiency of education. The article also offers recommendations for organizing the educational process based on the CREAM strategy: the use of interactive methods, development of students' independent and collaborative work skills, and transforming lessons into a student-centered approach through active learning. The author conducts an in-depth analysis of didactic principles, pedagogical approaches, and modern language teaching methods, substantiating the relevance of the CREAM strategy in contemporary education.

**Keywords:** CREAM strategy (Creative, Reflective, Effective, Active, Motivation), principles, methods, creativity, reflection, active learning.

Zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri talabalarga bilim berish bilan birga ularning ijodiy, tanqidiy va o'z-o'zini tahlil qilish kabi 21-asr ko'nikmalarini ham rivojlantirishdir. Pedagogikada o'qitishning didaktik prinsiplari tushunchasi sinf-dars tizimining asoschisi Yan Amos Komenskiy tomonidan kiritilgan. Vaqt o'tishi davomida bu atama o'zgarib, hozirda ta'lim jarayonini maksimal samaradorlik bilan tashkil etishga qaratilgan g'oyalar, usullar va qonuniyatlar majmuini anglatadi. Pedagogik atamalar lug'atida keltirilishicha ta'lim prinsiplari-"yoshlarga ta'lim tarbiya berishda ta'lim maqsadlariga muvofiq o'qitishning asosiy xarakterini belgilab beruvchi tayanch qoidalar" tushuniladi (Djurayev, 2008).

U.Yuldoshev va boshqalarda keltirilishicha: "didaktik prinsiplar – bu ta'limning umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarini belgilovchi asosiy qoidalardir. Boshqacha aytganda, ta'lim prinsiplarida ta'lim-tarbiyaning me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Didaktik kategoriya sifatida prinsiplar ko'zlangan maqsadga mos holda qonun va qonuniyatlardan foydalanish usullarini tavsiflaydi". Ta'kidlanilishicha *prinsiplar statik emas, balki doimiy rivojlanishda bo'ladi, yangi prinsiplar shakllanadi, mavjudlari esa takomillashtiriladi* va mualliflar tomonidan ta'lim mazmunining barqarorligi va o'zgaruvchanligi prinsipi, reduksiyalash prinsipi, kasbiy yo'nalganlik prinsipi, uzviylik prinsipi kabi prinsiplar tavsiya etiladi (Yuldoshev, 2024).


Yan Amos Komenskiyning didaktik ta'limotida o'qitishning umumiy prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Didaktika tarixida Komenskiy birinchi bo'lib bu prinsiplarga rioya qilish zarurligini ko'rsatibgina qolmay, ularning mohiyatini ham tushuntirib bergan.

Komenskiy ko'rsatmali ta'lim masalasini nazariy jihatdan ishlab chiqib, uni didaktikaning asosiy tamoyili deb e'lon qildi. U bu tamoyilni faqat ko'rsatib o'tish usuli emas, balki barcha sezgi

organlarini ishga solib, narsa va hodisalarni aniq, asosli va mustahkam o‘zlashtirish vositasi sifatida tushuntirib beradi.

Komenskiy ta’limda izchillik va tizimlilik prinsiplariga katta ahamiyat bergan. Fan asoslarini izchil bayon etish va tizimli ravishda o‘rgatish hozirgi didaktikaning ham muhim talabidir. O‘quvchilar tizimga solingan bilimlarni mantiqiy va metodik ketma-ketlikda o‘zlashtirishlari kerak. Shu sababli, ta’lim jarayonida izchillik va tizimlilikni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. O‘qitish vaqtida va muddatida aniq tartib bo‘lishi, shuningdek, o‘qitish bolaning bilim darajasiga mos kelishi kerakligi nazarda tutiladi (Komenskiy, 1975).

Uning didaktik tamoyillari juda ko‘p qirrali bo‘lib, ta’limni samarali, qiziqarli va hammaga tushunarli qilishga qaratilgan va haligacha juda dolzarb hisoblanadi. Uning asosiy prinsiplari quyida keltirilgan (1-rasmga qarang.):



### 1-rasm. Komenskiyning didaktik prinsiplari

Oliy ta’limda KREAM strategiyasi yordamida darslarni tashkil etishda bir qancha prinsiplarga amal qilish zarur deb hisoblaymiz. Ushbu strategiya talabalarning ijodiy, reflektiv, samarali, faol va motivatsiyalangan bo‘lishlariga yordam beradi. Bu jihatlar bir biri bilan chambarchas bog‘liq ya’ni birining rivojlanishi qolgan boshqasini ham mustahkamlaydi. Masalan, motivatsiyaga ega bo‘lish talabaning nimani xohlayotganini anglatadi. Aktiv o‘rganish va ijodkorlik motivatsiyani talab qiladi

va talabaga motivatsiyani ushlab turishga ko'maklashadi. Refleksiya va kreativlik effektiv strategiyalarni rag'batlantiradi.

Ta'kidlanishicha kreativlik faqat san'atkorlar uchun emas, balki kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda ham muhim. Uni ilhom kutish deb emas, balki faol fikrlash orqali rivojlantirish mumkin. Ijodkorlikni oshirish uchun o'rgatiladigan ko'nikmalar va usullar mavjud, lekin avvalo uning asosiy uchta prinsiplarini tushunish zarur:

- Birinchi prinsip: Yangi g'oyalar eski elementlardan tashkil topadi. Ijodkorlik – yangi va foydali g'oyalar yaratish, tanqidiy fikrlash esa to'g'ri fikrlashdir. Yangi g'oyalar odatiy narsalardan chetga chiqishni, tadqiqotchilik ruhini va qiziquvchanlikni talab qiladi. Ular aslida eski g'oyalarning qayta tuzilgan shaklidir. G'oyalar elementlardan iborat bo'lib, ularni birlashtirish, o'chirish yoki almashtirish orqali yangi g'oyalar yaratiladi.

- Ikkinchi prinsip: Hamma yangi g'oyalar ham bir xil darajada emas. Ijodkorlik nafaqat yangi g'oyalar, balki foydali va muhim g'oyalarni yaratishdir. U kognitiv va badiiy turlarga bo'linadi. Tanqidiy fikrlash badiiy ijodkorlikka to'sqinlik qilmasa-da, kognitiv ijodkorlik uchun zarur. Kognitiv ijodkorlik muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi va g'oyalarni yaratish hamda baholashni talab qiladi. Ba'zan ijodkorlik qoidalarga zid bo'lishni talab qilsa-da, tanqidiy fikrlash va kognitiv ijodkorlik bir-biriga zid emas, aksincha, ular bir-birini to'ldiradi.

- Uchinchi prinsip: Yangi g'oyalar uchun asos bo'ladigan bilimlarimiz zahirasi muhim, ammo foydali g'oyalar kutilmagan manbalardan kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Ijodkorlik g'oyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash qobiliyati bilan oshiriladi. Foydali g'oyalar kutilmagan manbalardan kelishi mumkin. Ijodkor bo'lish uchun turli sohalar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, keng bilim bazasiga ega bo'lish va o'quv jarayonini asosiy tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushunishga qaratish lozim (Joe Lau va boshqalar, 2024).

Klosi va Gjikalalar bayon qilishicha til – ijodiy jarayon. Talabalarning tilni o'rganishida ijodkorlik muhim rol o'ynaydi. Ijodiy mashqlar va vazifalar talabalarga tilni yaxshiroq o'zlashtirishga, motivatsiyani oshirishga, o'z-o'zini qadrlashni rivojlantirishga va chinakam muloqotga yordam beradi. Ijodiy ish sinfni boyitib, o'quv jarayonini qiziqarliroq qiladi. Ularga ko'ra ijodkor shaxslar ajoyib orzu qiluvchilar, atrofni kuzatuvchilar, o'zlariga mos jadvalda ishlovchilar, yolg'izlikdan foydalanuvchilar, hayot qiyinchiliklarini yenguvchilar va yangi tajribalar izlovchilardir. Ular muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqmaydilar, to'g'ri savollarni beradilar, odamlarni kuzatadilar, tavakkal qilishga tayyor, har narsada o'zini ifoda etish imkoniyatini ko'radilar, o'z ishtiyoqlarini ro'yobga chiqaradilar va ongning cheklovlaridan chiqib ketadilar (Klosi va boshqalar, 2021).

Graves Bodenga tayanib kreativlikning ikki turini: tadqiqotchi (eksplorativ) va o'zgartiruvchi (transformatsional) kreativlikni muhokama qiladi.

Tadqiqotchi kreativlik – ilgari sezilmagan jihatlarni kashf etish yoki mavjud chegaralarni aniqlab, o'zgarish imkoniyatlarini ochishdir. Masalan, portret san'atida yuzning joylashuvi yoki yorug'likdan foydalanishning o'zgarishi bunga misol bo'la oladi.

O'zgartiruvchi kreativlik – mavjud cheklovlarni olib tashlash yoki yangi elementlar qo'shish orqali tizimni butunlay o'zgartirishdir. Masalan, kubizm an'anaviy tasvirlash uslubini buzib, yangi vizual strukturalarni yaratgan (Graves, 2016).

Kortrel ijodkorlikni rag'batlantiruvchi bir nechta usullarni tavsiya etgan:

- Til o'yinlari va "lateral" (noodatiy fikrlash) fikrlash: misol uchun ixtiyoriy ikkita tasodifiy obyektning masalan, chashka va o'simlikni tanlab ular o'rtasida imkon qadar ko'proq aloqalar topish (masalan, o'lchami, rangi, egasi, sinish usuli, aylanishi, qachon sotib olinganligi bo'yicha). Ushbu turdagi "o'yin"ni o'quv jarayoniga ham tadbir etish mumkin.

- Qidirgan narsani topish: misol uchun xonadagi o'nta dumaloq narsani yoki ochish mumkin bo'lgan o'nta narsani topish. Qidira boshlagandan so'ng, diqqat shu kabi ko'plab narsalarga qaratilishini payqash mumkin. Agar yangi strategiyalar yoki javoblar qidirsak, ularni topish ehtimoli ham yuqori bo'ladi.

- Har bir savolning bittadan ko'p to'g'ri javobi bor: javob o'yab topilgandan so'ng, ko'proq javob qidiring. Ular yaxshiroq bo'lishi mumkin – yoki birinchi g'oyangizni yaxshilash usulini berishi mumkin.

- Birlashtirish orqali, masalan, ikki xil narsaning qismlarini birlashtirib, yangi narsa yaratish mumkin. Xuddi shunday, metaforalar va o'xshatishlardan foydalanib, muammolarga yangicha qarash mumkin. Agar biror masala tushunarsiz bo'lsa, uni oddiy narsalar yordamida xaritalashtirish orqali osonroq tushunish mumkin. Xulosa qilib aytganda, bu matn ijodkorlik va turli usullar bilan fikrlashning ahamiyatini ta'kidlaydi (Cottrell, 2013).

Denskiy ta'kidlashicha ijod murakkab tushuncha bo'lib, uni tushunish uchun uch asosiy tarkibiy qism – shaxs, jarayon va mahsulotga e'tibor qaratish lozim. Masalan, Motsart ijodkor shaxs, bastakorlik ijodiy jarayon, simfoniya esa ijodiy mahsulotdir. Ushbu tarkibiy qismlar turli madaniy muhitlarda turlicha qadrlanishi mumkin, biroq ijodkorlikni global darajada tushunishda ularning barchasi muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, til o'rganishda bilim va ko'nikmalar muhim bo'lib, an'anaviy darslarda yodlash va mashqlar asosiy o'rinni egallaydi. Kommunikativ yondashuv esa talabalarni cheklangan bilim bilan ham ijodiy fikr bildirishga undaydi. Takrorlash va yodlash kamroq ta'kidlanadi, ammo tilni erkin qo'llash uchun zarur. O'qituvchining vazifasi – bilim va kommunikativ mashg'ulotlar o'rtasida muvozanat yaratishdir, chunki mustahkam bilim ijodiy til qo'llashga yordam beradi (Denskiy, 2016).

Ksikszentmihalyi fikriga ko'ra, ijodkorlik domenlar, sohalar va insonlardan iborat. Domen ramziy qoidalar to'plami bo'lsa, soha ushbu domenni boshqaruvchi shaxslardan tashkil topadi. Ijodkorlik, inson ma'lum bir domen doirasida yangi g'oya yaratganida yuzaga keladi. O'qituvchilar ingliz tili domenida ijodiy yondashuvlar orqali yangilik yaratib, chet tili sohasida ijodkorlikni rivojlantirishlari mumkin. U ijodkorlik jarayonini besh bosqichga ajratadi: *tayyorgarlik* (muammoli vaziyatga qiziqish uyg'otish), *inkubatsiya* (g'oyalarning ong ostida shakllanishi), *ilhom* (yechim topish ongi), *baholash* (g'oyaning qiymatini aniqlash) va *tafsilot* (ilhomni yakuniy ishga aylantirish). Bu bosqichlar o'qituvchilar o'z fikrlash qobiliyatidan foydalanib, dars jarayonida samarali mashg'ulotlar ishlab chiqishda qo'llaniladi. Ijodkorlik jarayoni o'qituvchilarni yangilik yaratishga va tasavvurga boy g'oyalarni ilgari surishga undaydi (Csikszentmihalyi, 2013).

Talabalarining reflektivligini rivojlantirish usullari bir qator soha mutaxassisleri tomonidan taqdim etilgan. Moon talabada refleksiyaning rivojlantirish uchun reflektiv savollar va so'rovlarni qo'llash, muloqot yoki muhokamani osonlashtirish usullari, ishtirokchilarni materiallar yoki voqealarni faol ko'rib chiqishga undash va o'zini-o'zi baholash faoliyatidan foydalanish kabi usullarni keltirib o'tadi (Moon, 1999).

Kohonen ta'kidlashicha talaba tomonidan fikr-mulohazalarni yozib borish uchun tutilgan kundalik, o'yinlar, dramalar va simulyatsiyalar bilan shug'ullanish, hikoyalar, vizualizatsiyalar va modellar yaratish ushbu usullar sirasiga kiradi. O'rganishni qayd qilish jurnalining (kundaligini) qanday foydali jihatlari bo'lishi mumkin? Reflektiv o'quv jurnallari mulohaza uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'z jurnali yoki blog yozuvlarini kursdoshlar bilan muhokama qilish foydali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, reflektiv blog yoki o'rganishni qayd qilish jurnallari talabani keying darsga tayyorlaydi va keyingi qadam nima bo'lish rejasini tuzishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda bu kabi blog yoki shaxsiy kundalik yuritish talabalarining yozish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Lekin albatta talaba shaxsiy kundalik/blogni mulohazasiz, yuzaki yuritishdan holi bo'lishi maqsadga muvofiqdir (Kohonen, 2001).

Ta'kidlanishicha refleksiya til o'rganishda muhim bo'lsa-da, ko'plab o'quvchilar uchun bu jarayon yetarli darajada ta'minlanmagan. Tadqiqotlar refleksiyaning quyidagi jihatlari uchun muhimligini ta'kidlaydi:

- tushunchalarni qayta shakllantirish;
- o'z-o'zini anglashni rivojlantirish;
- harakatlarni baholash;
- harakat sifatini oshirish;

- javobgarlikni kuchaytirish (Mynard, 2023).

Reflektiv o'rganish – bu bilim olish jarayonini tahlil qilish orqali o'z-o'zini takomillashtirishdir. Reflektiv o'rganish ko'plab ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Jumladan (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

### Reflektiv o'rganishning afzalliklari

Reflektiv o'rganishning afzalliklari	Tavsifi
Shaxs o'z holatini tahlil qiladi	Bilimida nimalar yetishmayotganini va qaysi jihatlarni o'stirish kerakligini aniqlashga turtki beradi.
O'qish usullarini takomillashtiradi	Qaysi usullar shaxsga ko'proq mos kelishini va qaysilari foydasiz ekanini tushunishga yordam beradi.
Shaxs o'zini yaxshiroq anglaydi	Qaysi topshiriqlar yoki ma'lumotlar qiyinroq bo'lishini tushunishga undaydi.
Metakognitiv qobiliyatni oshiradi	O'z o'rganish jarayoni haqida tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.
Avtonomlik va nazorat hissini kuchaytiradi	O'qish jarayonini boshqarayotgandek his qilishga yordam beradi.
O'qishga motivatsiyani oshiradi	Jarayonni nazorat qilish hissi orqali o'qishni yanada maqsadli va samarali qiladi.
Samarali natijalarga erishishga yordam beradi	O'qish jarayonini to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirish va motivatsiyani kuchaytirish orqali o'zgarishlarni amalga oshirishga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, reflektiv o'rganishni materialni, tushunchalarni qanchalik yaxshi anglash orqali, o'rganganlarimizni qachon va qanday qo'llashni bilish, o'rganish jarayonidagi samarali usullarni aniqlash, qobiliyatlarimiz va fikrlarimiz ustida mulohaza yuritish, oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz ustida mulohaza yuritib, tahlil qilish orqali rivojlantirish mumkinligi tavsifa qilinadi.

Ta'kidlanishicha, reflektiv o'rganish shaxsiy rivojlanishga va o'qish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli, reflektiv o'rganish ko'plab sohalarda muhim deb hisoblanadi va ko'pgina ta'lim, trening va ish dasturlarining ajralmas qismi hisoblanadi (Itamar Shatz, 2025).

Mynard *refleksiya* va *metakognitsiya* terminlarini farqlab bergan. Unga ko'ra refleksiya – bu insonning tajribalaridan saboq olib, keyingi harakatlarini ongli ravishda rejalashtirish jarayoni. Metakognitsiya esa tafakkurni anglash va boshqarishga qaratilgan bo'lib, tajribaga asoslanmagan fikr yuritishni ham o'z ichiga oladi. Refleksiya orqali inson o'z ta'lim jarayonini boshqarishi va bilimni ongli ravishda egallashi muhim sanaladi. Mezirovga asoslanib qayd etilishicha refleksiyani nafaqat muammoni hal qilish, balki uning sabablarini tushunish va tanqidiy fikrlash sifatida izohlaydi (Mynard, 2023).

Bugungi globallashtayotgan dunyoda ta'lim tizimi samarali, ijodiy va zamonaviy yondashuvlarga muhtoj. An'anaviy ta'limning yodlash va passiv tinglashga asoslangan usullari 21-asrning faol, tanqidiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda yetarli emas. Shu sababli, faol o'qitish yondashuvi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Faol o'qitish o'quvchilarni faqat bilim olish emas, balki faol ishtirok etish, fikrlash, baholash, muammolarni hal qilishga undaydi. Bu yondashuvda o'quvchilar aqliy, ijtimoiy va jismoniy jihatdan faol bo'ladi, o'qituvchi esa boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi (facilitator) sifatida harakat qiladi.

Xorijiy tillarni o'rganishda aktiv/faol o'rganish ahamiyatligi bilan ajralib turadi, sababi faol o'rganish (active learning) muammoni shaxs o'z ishtiroki, shaxsiylashtirish va o'zaro muloqotni ta'kidlash orqali hal qilishga yordam beradi va bir nechta afzalliklarga ega: (1) talabada kundalik hayotga mos va amaliy muhitda tilni o'rganish imkoniyati berilgani uchun, o'quv jarayonidagi

qiziqishi va faolligi oshadi; (2) o'quv dasturi talaba faoliyatidagi aniq talablarga moslashtirilgan; (3) faol o'rganish shuningdek, kommunikatsiya ko'nikmalarining rivojlanishini rag'batlantiradi, bu esa xalqaro hamkasblar va mijozlar bilan yaxshiroq ishlash va hamkorlik qilish imkonini beradi. (4) bundan tashqari, u o'z-o'ziga ishonchni oshiradi, chunki talaba til ko'nikmalarini xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda mashq qilishi mumkin.

Merina Devira o'z ishida olimlar ishlariga tayanib faol o'rganish va "talaba markazda" (shaxsga yo'naltirilgan) yondashuvlarni almashtirib ishlatish mumkin deya hulosa qilgan. Ta'kidlanishicha, faol o'rganish pedagogikasi til o'qitishda muhim komponent bo'lib, u o'quvchilarni bilim olish jarayonida faollikka undaydi. O'qituvchilar fasilitator sifatida o'quvchilarni turli faoliyatlarga, jumladan, guruh muhokamalari, viktorinalar va o'yinlarga jalb qilishlari kerak. Auster va Wylielarga tayanib bayon qilinishicha faol o'rganish uchun to'rtta asosiy bosqichni taklif qilgan: kontekst yaratish, darsga tayyorgarlik, darsni o'tish va doimiy takomillashtirish. Ushbu yondashuv faol o'rganish muhitini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Merina Bahri Ys va boshqalarning ishini tahlil qilib faol o'rganish tamoyillarini konstruktivistik ta'lim nazariyalariga asoslanib tizimlashtirgan. Unga ko'ra, o'quvchilar darsda faqat tinglovchi bo'lib qolmay, turli faoliyatlarga jalb qilinishi, ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi va o'z o'rganish usullari haqida fikr yuritishi lozim (Devira, 2020).

T.Verdiyeva tadqiqotidan ma'lum bo'lishicha, faol o'qitish usullarining samaradorligi turli omillarga bog'liq. Ayni paytda o'qituvchilar asosan an'anaviy, taqlidga asoslangan yondashuvlardan foydalanmoqda, faol metodlar esa amaliyotda yetarli qo'llanilmayapti. Ularning natijadorligi muloqot va o'z fikrini erkin ifoda etishga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali oshadi. Bunda o'yinli mashg'ulotlar, aqliy hujum mashqlari va muammoli vaziyatlar muhim rol o'ynaydi. Ilmiy adabiyotlarda motivatsiya asosiy omil sifatida e'tirof etilib, u pedagogik innovatsiyalar orqali ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, faol o'qitish strategiyalarining asosiy jihatlarini quyidagicha bayon qilinadi:

- ma'ruza shaklidan voz kechmasdan, unga kichik faol o'qitish elementlarini qo'shish orqali talabalar uchun darsni samarali qilish mumkin;

- zamonaviy ta'lim ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida talabalarni amaliy bilimga asoslangan holda o'qitishni talab qiladi;

- faol o'qitishda ta'lim markazi o'qituvchidan talabagacha siljiydi, ya'ni o'qituvchi ilhomlantiruvchi, talaba esa faol ishtirokchi sifatida qaraladi.

- talaba passiv tinglovchi emas, balki voqealarga ta'sir qila oladigan va o'z fikrini bildiradigan faol tadqiqotchi sifatida shakllanadi.

- bunday yondashuv yoshlarning mustaqil fikrlashini, o'ziga ishonchini va jamiyatdagi o'rnini topishini ta'minlaydi.

Faol o'qitish strategiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- fikr va amaliyotni birlashtirish;
- turli o'rganish uslublarini qo'llash;
- dasturlarni to'g'ri metodik asosda tuzish;
- kognitiv muloqotni rag'batlantirish;
- yuqori darajadagi tafakkurni rivojlantirish;
- metakognitiv faollikni oshirish;
- motivatsiyani qo'llab-quvvatlash;
- talabalarni kuzatish va tahlil qilish (Verdiyeva, 2021).

Muhokama qilinishicha, faol o'qitish talabalarni darsda faol ishtirok etishga jalb qilishni maqsad qiladi, bu esa ularning tushunishini yaxshilaydi va eslab qolishni oshiradi. Talabalar passiv tinglovchilardan faol o'quvchilarga aylanishadi, nazariy tushunchalarni amaliyotga bog'lab, tanqidiy fikrlash va amaliy tushunishni rivojlantiradilar. Quyida bir nechta faol o'qitishni targ'ib qiluvchi usullar taqdim etiladi. Ushbu usullar talabalar o'rganish jarayoniga faol qatnashishiga yordam beradi, natijada ta'lim samarali va hayotga tayyorlovchi bo'ladi. (2-jadvalga qarang):

**Faol o‘qitishda samarali hisoblangan usullar**

Strategiyalar	Tavsifi
O‘yla – Juftlash – Ulash (Think-Pair-Share)	“O‘yla – Juftlash – Ulash” usuli talabalarni avval yakka fikr yuritishga, so‘ng sherik bilan muhokama qilishga va nihoyat butun sinf bilan fikr almashishga undaydi. Bu yondashuv faol tinglashni rivojlantiradi, ishonchni oshiradi va tengdoshlar o‘rtasida tushunishni mustahkamlaydi.
Keyz stadi (case-study)	Voqealarga asoslangan tahlillar talabalarni real holatlar orqali nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi va tanqidiy fikrlash hamda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
Rolli o‘yinlar	Rolli o‘yinlar talabalarda empatiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, darsni esda qolarli va qiziqarli qiladi hamda ularni faol ishtirok etishga undaydi. Turli nuqtai nazarlardan tushuncha hosil qilish.
O‘zaro o‘qitish (peer-teaching)	O‘zaro o‘qitish talabalar o‘rtasida bilim almashinuvini ta‘minlab, tushunish, muloqot, hamkorlik va mas‘uliyat hissini rivojlantiradi.
“Eng chalkash nuqta” (the muddiest point)	“Eng chalkash nuqta” usuli talabalarni o‘zlari tushunmagan joylarni aniqlashga undaydi, o‘qituvchilarga esa darsni yaxshilash va har bir talabani qamrab olish imkonini yaratadi.
O‘yin asosida o‘qitish	Ta‘limiy o‘yinlar asosida o‘qitish darslarni qiziqarli qiladi, asosiy tushunchalarni mustahkamlaydi, talabalar ishtiroki va motivatsiyasini oshiradi.
“Uchtalik suhbat” (Three-step Interviews)	“Uchtalik suhbat” usuli talabalarni faol tinglash, hamkorlik va aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi.
“Tanaffus usuli” (the Pause Procedure)	“Tanaffus usuli” dars vaqtida qisqa muhokamalar orqali talabalar tushunchasini mustahkamlash va faol ishtirokni kuchaytirish imkonini beradi.
Muammoli o‘qitish	Muammo asosidagi o‘qitish tanqidiy fikrlash, izlanish va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali o‘rganishni chuqurlashtiradi.
Tajriba asosidagi o‘qitish (Experiential Learning)	Tajriba asosidagi o‘qitish talabalarni amaliy faoliyatlar orqali bilimni qo‘llashga undaydi, turli o‘quv uslublarini qo‘llab-quvvatlab, nazariyani amaliyotga bog‘lashni ta‘minlaydi.
Aqliy hujum (brainstorming)	“aqliy hujum” usuli talabalar uchun ijodiy fikrlarni erkin ifodalashga imkon yaratadi, turli nuqtai nazarlarni ko‘rishga yordam beradi va muhokama yoki loyiha rejalashtirishga asos bo‘ladi.
Ekskursiyalar (field trips)	Ekskursiyalar ta‘limni sinfdan tashqarida haqiqiy hayot bilan bog‘lash orqali talabalar uchun bilimni yanada aniq va amaliy tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘lim tizimida KREAM (Creative, Reflective, Effective, Active, Motivation) strategiyasi asosida darslarni tashkil etish talabalarning ijodiy va reflektiv fikrlashini rivojlantirish, ularni faol o‘quv jarayoniga jalb etish va ichki motivatsiyasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur strategiya orqali talabalar nafaqat bilim olishadi, balki o‘z-o‘zini tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish va amaliy muammolarni yechish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. KREAM yondashuvi dars jarayonini jonlantiradi, interaktiv uslublar yordamida o‘quvchilarni faollikka undaydi va ularning o‘z-o‘zini boshqarish, metakognitiv salohiyatini

kuchaytiradi. Shunday ekan, zamonaviy ta'limda ushbu strategiyani keng qo'llash dars samaradorligini oshirib, sifatli ta'limga erishishning muhim kafolati hisoblanadi.

### Adabiyorlar ro'yxati:

1. *12 Effective Active Learning Strategies to Boost Student Success*. International School Ho Chi Minh City. <https://www.ishcmc.com/news-and-blog/active-learning-strategies/#:~:text=Key%20elements%20of%20Active%20Learning,practical%20understanding%20and%20critical%20thinking>. Murojaat sanasi: 17.04. 2025
2. Cottrell, S. *The Study Skills Handbook*, 4th edition, Palgrave Macmillan. 2013 b.433. B.88
3. Csikszentmihalyi, M. (2013). *Creativity: The psychology of discovery and invention*. New York, NY: Harper
4. Denskiy, K. (2016). Conceptualizing Creativity and Culture in Language Teaching. In R. H. Jones & J. C. Richards (Eds.), *Creativity and language teaching: Perspectives from research and practice* (pp. 49– 62). London: Routledge.
5. Devira, M. (2020). Revisiting the implementation of Active Learning Pedagogy in EFL classrooms. *Studies in English Language and Education*, 7(1), 223-236.
6. DJurayev R.X. va boshqalar. *Pedagogik atamalar lug'ati*. –T.: – Fan, 2008.-196b.-B.124
7. Graves, K. (2016). Creativity in the Curriculum. In R. H. Jones & J. C. Richards (Eds.), *Creativity and language teaching: Perspectives from research and practice* (pp.165–179). London: Routledge.
8. Itamar Shatz.(2025). *Reflective Learning: Thinking About the Way You Learn*. <https://effectiviology.com/reflective-learning/> murojaat sanasi: 20.03.2025
9. Joe Lau & Jonathan Chan. Three basic principle. <https://philosophy.hku.hk/think/creativity/basic.php> murojaat sanasi 25.03.2025
10. Klosi, D., Gjika, (2021). «Creativity in teaching / learning a foreign language».
11. Kohonen, V. (2001). Towards experiential foreign language education. In V. Kohonen, R. Jaatinen, P. Kaikkonen, & J. Lehtovaara (Eds.), *Experiential learning in foreign language education* (pp. 8-60). PEARSON EDUCATION.
12. Komenskiy A.Ya. *Buyuk Didaktika (O'zbek tiliga tarjima)*. –T.: – O'qituvchi, 1975.-244b.-B.22-26
13. Moon, J.A. (1999) *Reflection in Learning and Professional Development: Theory and Practice*. London: Routledge.
14. Mynard, J. (2023). Promoting Reflection on Language Learning: A Brief Summary of the Literature. In N.Curry, Ph.Lyon, J.Mynard (Eds.), *Promoting Reflection on Language Learning: Lessons from a University Setting* (pp. 23– 37). Bristol: Jackson
15. U. J. Yuldoshev, A. B. Turayev, U. M. Ernazarova, D. H. Zafarova **DIDAKTIK QONUNIYATLAR VA PRINSIPLAR – ZAMONAVIY PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA // Academic research in educational sciences. 2024. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/didaktik-qonuniyatlar-va-prinsiplar-zamonaviy-pedagogik-tadqiqotlarning-nazariy-va-metodologik-asosi-sifatida> (murojaat sanasi: 19.03.2025).**
16. Verdiyeva, Tunzala. (2021). Prospects for the application of active learning methods in modern education. *Revista on line de Política e Gestão Educacional*. 25. 1649-1664. 10.22633/rpge.v25iesp.3.15587.
17. Why active learning is the best method for maintaining language proficiency. <https://blcc.be/en/blog/active-learning-for-maintaining-language-proficiency#:~:text=Active%20learning%20encourages%20you%20to,language%20in%20your%20professional%20life>. Murojaat sanasi: 20.03.2025